

MIRZO ULUG'BEK JAHON OLIMLARI NIGOHIDA

SEVARAXON XOLTO'RAYEVA BAHODIR QIZI

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani

2-umumta'lim maktabi Ona tili va adabiyoti

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug`bekning o`rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo`ymaydi. Taqdir bu ulug` zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo`lishdek o`ta mas`uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug`bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyoringing donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo`lida ulkan shijoat va matonat ko`rsatdi. Bu benazir alloma o`zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy ma`lumotlarning naqadar aniq va to`g`ri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblar ham tasdiklaydi. Ulug`bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma`naviyatining poydevoriga qo`yilgan tamal toshlaridan biri bo`lib, yurti-mizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko`rsatadi.[1]

Kalit so`zlar: *Amir Temur, Temuriylar davlati, Mirzo Ulug`bek, me`morchilik, naqqoshlik, arxitektura, maqbara.*

KIRISH

O`zbekiston dunyoga mashhur diyori bo`lib, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo`shgan zamin hisoblanadi, Shuningdek, bu hududda insoniyat madaniyatining durdonalari hisoblangan ko`plab betakror, mahobatli tarixiy me`moriy obidalar mavjud. O`zbekiston Respublikasi hududida me`morchilik va binokorlik qadim zamonlardan miloddan avvalgi III minginchi, ba`zi ma`lumotlarga ko`ra, X

minginchi yillardan boshlangan. Shundan so‘ng bu tarixiy diyor asrlar mobaynida turli me‘morchilik san‘ati obidalari maskaniga aylandi. Jang-u jadallar vaqtida anchasi barbod bo‘ldi. XIV asrdan me‘morchilik yana rivojlana boshlagan. Arxitekturada yangi uslub vujudga kelgan (masalan, Bayonqulixon maqbarasi). O‘sha davrning me‘morchilik namunalari Shohi Zinda kompleksida saqlangan. Bu davrda me‘morchilik rivojlanishiga Amir Temur va uning avlodlari o‘zlarining ulkan beqiyos hissalarini qo‘shgan.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Ulug‘bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Amir Temurning saroyidagi kichik yirik olimlardan bo‘lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish “Zij”ida faqat Qozizoda Rumiyni “ustozim” deb ataydi. Haqiqatan ham, Qozizoda 1360-yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20-25 yoshlarida, ya‘ni Ulug‘bek tug‘ilmasidanoq Amir Temurning safiga o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiyy kabi astronom va matematiklar ta‘sirida ulg‘ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan bo‘lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o‘rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi. Ulug‘bekning xodimi bo‘lmish G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan maktubida Ulug‘bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta‘riflaydi: «Allohga va uning ne‘matlariga shukronalar bo‘lsunkim, yetti iqlimning farmonbardori, Islom podshohi (ya‘ni Ulug‘bek — A. A.) donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, awalo u kishi Qur‘oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsilrlami va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallami yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar

bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. “Tazkira” va “Tuhfa”dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi”. Ulug‘bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko‘zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurti maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etadi. Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417-yili boshlanib, uch yilda nihoyasiga yetkaziladi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoz izlab Amir Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning jnaslahati bilan Ulug‘bek Xurosonning Koshon shahridan G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to‘plangan olimlarning soni, 1417-yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me‘morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar sharafliroq va obro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.[7]

XULOSA

Tarixiy xotira xalqimiz ijobiy tajribasini to‘plashga imkon beradi. Shu bilan birga, tarixni o‘rganish o‘tmishni tanqidiy nigoh bilan idrok etishga, bo‘lib o‘tgan xatolar sababini anglashga, undan zaruriy xulosalar chiqarishga insonni undaydi. Va, nihoyat, tarix ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini aniqroq bilishga ko‘mak beradi. Demak, o‘tmishimizni o‘rganishdan asosiy maqsad, tarixiy haqiqatni anglab, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunish va shu asnoda kelajak uchun zaruriy xulosalar qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020.
2. Normatova Sh. Jahon adabiyoti: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. – T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 – 96 b.
3. Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “Xalq so‘zi” gazetasi, aprel, 2021.
4. Kamoliddinov F. Amir Temur va Temuriylar davri adabiy muhit va tasviriy san’atning ba’zi jihatlari tarixiy manbalarda. Academic research in educational sciences, volume 2, Issue 9, 2021.
5. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2013 yil 14-son.
6. Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. “Ijodiy parvoz” gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018.
7. Frederik Bopertyui-Bressan. Amir Temur dunyo olimlari va adiblari nigohida. Xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya. Sentyabr, 2021.